

SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA HARBIY ISLOHOTLARNING DAVLAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Muyiddinov Bekali

Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti Tarix fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro xonligida hukmronlik qilgan dastlabki sulola Shayboniylar hukmronligi davrida harbiy jihatdan olib borgan islohotlariga kengroq va tahliliy jihatdan to'xtalib o'tiladi.

Tayanch so'zlar: Shayboniylar, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdullaxon II, qo'shin, xon, jangovor qism, barong'or (o'ng qanot), javong'or (so'l), zambarak, bargoh, shahar, jevachi.

THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS

Abstract. this article touches more broadly and analytically on the reforms that the early dynasty, which ruled in the Bukharan Khanate, carried out militarily during the reign of the Shaybanids.

Key words: Shaybani, Zahiriddin Muhammad Babur, Abdullaxon II, Army, Khan, War-Part, barong'or (right wing), javong'or (left), zambarak, bargoh, city, jevachi.

РОЛЬ ВОЕННОЙ РЕФОРМЫ В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ ПРИ ШЕЙБАНИДАХ В ЖИЗНИ ГОСУДАРСТВА

Аннотация. В этой статье более подробно и аналитически будут рассмотрены реформы, которые Первая династия, правившая в Бухарском ханстве, провела в военном отношении во время правления Шейбанидов.

Ключевые слова: Шейбаниды, Захириддин Мухаммад Бабура, абдуллахан II, армия, Хан, боевая часть, баронгор (правый фланг), джавангор (левый), пушка, баргох, город, джевачи.

Shayboniylar davrida Buxoro xonligida harbiy islohotlarning davlat hayotida tutgan o'rni

Shayboniylar davlatida qo'shin to'plash, qo'shin ta'minoti, uning tarkibi, qo'shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o'tash, harbiy harakatlarni olib borish asosan Chingizxon va Amir Temur qo'shinlarining harbiy tuzilmasi va tizimiga asoslangan. Qo'shinda himoya vositasi sifatida qalqon (sipa), hamda temir simdan mayda qilib to'qilib, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan sovut (jovshan) yoki jiba (jeva) - temir yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyim kabilardan foydalanilgan¹.

Abdullaxon II davrida Usmoniylar davlati va Rossiyadan pilta miltiq va zambaraklar ham keltirila boshlangan. Qo'shinning asosiy jangovar qismini suvoriylar tashkil etardi. Manbalarda kamon o'qi o'tmasligi uchun otlar ustiga maxsus yopinchiq - gejm (kejim) yopilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxon qo'shinida Farangistondan olib kelingan pilta miltiqlar, farangi javshan (sovut) hamda zambaraklar borilgi haqida yozadi. Shuningdek, bu davrda

¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2000, 148-b

Usmoniylar davlati bilan harbiy sohada ham ma'lum aloqalar o'rnatilgan edi. Masalan, Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) o'z qarorgohiga 300 nafar turk yanicharlarini xizmatga olgan. Shayboniylar qo'shining oliy bosh qo'mondoni xonning o'zi hisoblangan². Alohida bo'linmalar - o'ng qanot, so'l qanot, qalb, qorovul va hirovullarga xonning o'g'illari, qarindoshlari yoki jangda sinalgan, tajribali va dovyurak nuyonlar (yoki sultonlar) boshliq qilib tayinlangan. Ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi Shayboniylar qo'shini ham o'n minglik (tuman), minglik, yuzlik, o'nlik bo'linmalarga bo'lingan. Shayboniylar qo'shini asosan qalb (qavl) deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (so'l qanot) qismlaridan va hirovul (qo'shinning orqa qismi)dan tashkil topgan³. Manbalarda qo'shinning qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda o'g'lon deb ham eslatiladi. Qo'shin oldida manglay deb ataluvchi harbiy qism yarim doira shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovor qism - ilg'or bo'lgan.

Qo'shin tarkibida tug'chi qism, ya'ni, bayroq ostida zaxirada turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) 20-30 ming kishilik jangovar harbiy bo'linma hamda xabargiri - dushman to'g'risida ma'lumot keltiruvchi (razvedka) maxsus bo'linmalar ham bor edi.

Harbiy yurish vaqtida qo'shinning oziq-ovqat zaxirasini aholining qo'lida bo'lgan ortiqcha oziq-ovqatni musodara qilish yo'li bilan to'latib turgan. Bunday tarzda oziq-ovqat to'plash yurtovul (yurt ovlamoq) deb atalgan. Bunda xon sultonlardan birining boshchiligida yo'l yoqasidagi qishloqlarga maxsus harbiy qism yuborar va bu qism aholidan oziq-ovqat va chorvalarni to'plab kelar edi⁴. Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o'tkaziladigan joy - bargoh deb atalgan. Qo'shinni yig'ish va yurishga tayyorlash, ularning maoshini to'lash hamda boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor-tavochi shug'ullangan. Lashkar to'plash ishi jarchi deb ataladigan amaldorlarga ham topshirib turilgan. Qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlashga ma'sul bo'lgan amaldor jevachi bo'lib, u xonning qurol-aslahalariga ham javobgar bo'lgan⁵. Xon va qo'shin boshliqlarining alohida topshiriqlarini bajaruvchi shaxslar yasovul (Abdullaxon II davrida - muboshir) deb atalgan.

Xonning shaxsi va saroyini qo'riqlovchilar qo'rchi, xon bayrogini ko'tarib yuruvchilar yalovbardor deb nomlangan.

Abdullaxon II davrida qo'shinga zambaraklar joriy etilgan bo'lib, qo'shinda to'pchiboshi mansabi paydo bo'ladi. Harbiylar ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan bo'lib, ular sodir etgan jinoyat va jazo turlari maxsus harbiy sudyalalar – qozi askar hamda muftiy askar tomonidan ko'rib chiqilgan⁶. Zahiriddin Muhammad Bobur shayboniylarning to'lg'ama – dushman qanotlarini aylanib o'tib, orqadan hujum qilish deb atalgan jang usulini maqtab yozadi. Ibn Ro'zbehon shayboniylarning jang oldidan juda tez to'plana olishi, birdamlik va hamjihatlik bilan jang qilishini o'z asarlarida alohida ta'kidlab o'tadi.

² Muhammad Solih. Shayboniynoma. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989, 258-b

³ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: Yulduzcha, 1990, 274-b

⁴ Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. - Toshkent: Sharq, 2010, 174-b

⁵ История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.). Коллектив авторов. Отв. ред. Алимова Д.А. Ташкент: Фан, 2012, 364-b

⁶ Zayniddin Vasifiy. Badoye ul-vaqoye. - Toshkent, 1979, 362-b

REFERENCES

1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2000
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: Yulduzcha, 1990
3. Zayniddin Vasifiy. Vadoye ul-vaqoye. - Toshkent, 1979
4. История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.). Коллектив авторов. Отв. ред. Алимова Д.А. - Ташкент: Фан, 2012
5. Muhammad Solih. Shayboniynoma. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989
6. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. - Toshkent: Sharq, 2010.
7. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.
8. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
9. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
10. Ashurovich, B. A. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48-53.
11. Akmal, B. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65-70.
12. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
13. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
14. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
15. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
16. Akmal B. (2024). THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL. *Modern Science and Research*, 3(1), 694–698. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28381>